




# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG‘ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2023-YIL YANVAR-MART  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 73-241-96-28**  
**[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**


## Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 703,8 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 101,4 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-mart  
mlrd.so‘m**



**Yanvar-mart  
FHI, %da**



Farg‘ona sh.	1365,8	98,1
Qo‘qon sh.	1071,6	96,8
Quvasoy sh.	301,6	98,7
Marg‘ilon sh.	291,4	110,6
Oltiariq	138,4	86,0
Qo‘shtepa	320,1	104,7
Bag‘dod	209,2	102,8
Buvayda	174,7	113,8
Beshariq	230,5	102,2
Quva	155,0	97,8
Uchko‘prik	589,3	112,8
Rishton	103,5	95,8
So‘x	20,9	101,3
Toshloq	913,7	93,5
O‘zbekiston	182,5	106,8
Farg‘ona t.	283,0	100,5
Dang‘ara	214,5	105,1
Furqat	91,3	105,8
Yozyovon	46,6	110,1


*mlrd.so‘m*

*FHI, %da*


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (4 329,6 ming so'm), Qo'qon shahrida (3 521,8 ming so'm), Toshloq tumanida (4253,4 ming so'm) hamda Uchko'prik tumanida (2489,5 ming so'm) ni tashkil etmoqda.

Yanvar-mart  
ming.so'm



Yanvar-mart  
o'sish sur'ati %da



Farg'ona sh.	4 329,6	93,2
Qo'qon sh.	3 521,8	82,8
Quvasoy sh.	3 043,0	96,6
Marg'ilon sh.	1 178,7	108,7
Oltiariq	617,2	84,2
Qo'shtepa	1 568,2	102,0
Bag'dod	915,8	100,7
Buvayda	721,7	111,3
Beshariq	965,2	100,6
Quva	571,6	96,1
Uchko'prik	2489,5	113,3
Rishton	486,6	93,3
So'x	254,1	99,5
Toshloq	4253,4	91,5
O'zbekiston	789,7	114,0
Farg'ona t.	1301,3	102,3
Dang'ara	1238,2	110,0
Furqat	732,6	103,6
Yozyovon	396,6	107,7

ming.so'm

o'sish sur'ati %da



*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **6 307,7** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **94,1 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2023-yilning yanvar-mart oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg'ona shahri (20,4 %), Qo'qon shahri (16,0 %), Toshloq tumani (13,6 %), Uchko'prik tumani (8,8 %), hamda Qo'shtepa (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Buyayda tumanida (113,8%), Uchko'prik tumanida (112,8 %) hamda Marg'ilon shahrida (110,6 %) tumanlarida


FHI, %da



Ulushi, %da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **19,1 mlrd. so‘mni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar-mart

2022-y. 28,4 mlrd. so‘m

2023-y. 19,1 mlrd. so‘m

### FHI, %da

2022-y. 62,5%

2023-y. 86,4%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **6 307,7 mlrd. so‘mni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **94,1 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar-mart

2022-y. 5 798,8 mlrd. so‘m

2023-y. 6 307,7 mlrd. so‘m

### FHI, %da

2022-y. 104,4%

2023-y. 103,5%



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Klinker sement	
2023	133,1	2023	184,4	2023	38,1
2022	93,8	2022	93,8	2022	44,7
2021	76,2	2021	64,1	2021	131,6
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2023	101,1	2023	65,3	2023	82,0
2022	36,2	2022	88,9	2022	85,5
2021	107,7	2021	20,3	2021	90,0
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2023	9,5 m	2023	146,6	2023	62,9
2022	12,6	2022	49,3	2022	83,9
2021	3,8 m	2021	104,5	2021	52,5
Karbamid		Paxta chigiti		Paxta linti	
2023	106,1	2023	108,9	2023	104,4
2022	50,8	2022	161,9	2022	164,2
2021	58,2	2021	33,1	2021	36,8

2023-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 91,3 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 84,4 %ga ko'paygan), 93,7 ming tonna dizel yoqilg'isi (33,1 % ko'paygan), 36,4 ming tonna kalava ip mahsulotlari (12,8 %ga ko'paygan) hamda 17538,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (6,1 %ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.






Yanvar-mart

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-mart	2023-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	49,5	91,3	41,8
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	55,6	45,6	-10,0
Paxta chigiti, ming t.	32,6	35,5	2,9
O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.	3,5	3,6	0,1

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,6 % (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 140,6%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 44,8% (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,0 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4% (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,9%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,2 % (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,0 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 %ni (2022-yilning yanvar-mart oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 11,8 % (10,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 19,3% (22,4%) va quyi texnologiyalisi – 62,8% (59,7%)ni tashkil etdi.




## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati 21,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,3%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 88,8 % ni tashkil etgan.


2022-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati 23,0 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,1 % ga kamaydi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,7 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 651,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,7 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 31,9 % ga koʻpaydi va ishlab chiqarish hajmi 1095,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,6 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 54,9 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 19,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-mart oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 55,5 % ni tashkil etgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,6 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 412,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 115,2 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 %, fizik hajm indeksi 130,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 325,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 96,8 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,7 % ni, fizik hajm indeksi 115,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 550,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,7 % ni fizik hajm indeksi esa 100,7 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi 52,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 302,7 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,0 % ni fizik hajm indeksi esa 83,1 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 178,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 155,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni fizik hajm indeksi esa 84,4 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 159,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 48,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni fizik hajm indeksi esa 102,2 % ni tashkil etgan.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 128,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 163,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 119,1 % ni tashkil etgan.



### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 %, fizik hajm indeksi 121,4 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 133,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni fizik hajm indeksi esa 144,7 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 326,1 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,9% ini) tashkil etadi.


2023-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 69,4 mlrd. so‘mga kamayganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	101,5	85,4	-16,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	399,8	379,9	-19,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	5,6	4,0	-1,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	4,9	4,7	-0,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,0 mlrd. so'm yoki 29,1 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 26,7 %ga kamaydi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1780,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 111,9 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 26,6%ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 17,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahri 16,2%, Uchko'prik tumanida 18,4% hamda Farg'ona shahrida 11,0% ga to'g'ri keladi.



## Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 328,3 mlrd.so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 18,4 %, Qo'qon shahrida 288,4 mlrd.so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 16,2 %i shuningdek, Farg'ona shahrida 195,1 mlrd.so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 11,0 %ni tashkil etdi.



mlrd.so'm

O'sish sur'ati %da


1435,9 mlrd.so'm

2022-yil yanvar-mart

1780,3 mlrd.so'm

2023-yil yanvar-mart

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi




2022-yil 92,5%

2023-yil 111,9%

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 446,7 ming.so'm bo'lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 %ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo'yicha Uchko'prik tumanida 1386,7 ming so'm, Qo'qon shahrida– 947,9 ming.so'mga, Toshloq tumanida 762,6 ming so'mga, Farg'ona shahrida esa 618,6 ming so'mga to'g'ri keldi.



### Farg'ona viloyati

367,7 ming so'm

2022-yil yanvar-mart

446,7 ming so'm

2023-yil yanvar-mart






2022-yil 90,7%

2023-yil 109,6%

## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 21,1 %, Bag'dod tumaniga 10,7% ni , shuningdek, Qo'qon shahri 13,4% ni, Farg'ona shahri esa 9,6 %ni tashkil etdi.




## Hudular bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmidagi eng yuqori ulushi shahar va tumanlar orasida Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 18,9%ni, Farg'ona shahrida 12,3% shuningdek, Uchko'prik tumanida 15,8 %ni tashkil etadi.



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **50,8%**



Farg'ona sh.	111,1	429,2
Qo'qon sh.	170,6	122,0
Quvasoy sh.	7,7	150,2
Marg'ilon sh.	70,9	137,2
Oltiariq	21,0	112,7
Qo'shtepa	33,4	117,4
Bag'dod	25,1	46,3
Buvayda	46,5	148,9
Beshariq	3,9	40,1
Quva	11,9	60,7
Uchko'prik	143,3	110,5
Rishton	10,2	93,8
So'x	4,3	65,5
Toshloq	149,5	100,4
O'zbekiston	12,7	89,6
Farg'ona t.	3,1	54,0
Dang'ara	39,0	104,8
Furqat	33,5	104,9
Yozyovon	6,5	79,3

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar-mart oylarida

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2910,4 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,4 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So‘x, Yozyovon, Furqat tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Marg‘ilon shahri (97,5%), Uchko‘prik tumani (83,7%), Bag‘dod tumani (81,6%), Dang‘ara tumani (61,7%), Buyayda tumani (59,0%) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Quva tumani (45,9%), Farg‘ona tumani (20,9%), Toshloq tumani (8,7%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2023-yil 1-aprel holatiga

## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 12245 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 8385 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1061 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 12,7 %) Qo‘qon shahriga, 919 tasi (11,0%) Farg‘ona shahriga, 785 tasi (9,4 %) Marg‘ilon shahriga, 563 tasi (6,7%) Uchko‘prik tumaniga, 531 tasi (6,3 %) Dang‘ara tumaniga, 487 tasi (5,8 %) O‘zbekiston tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



2022-yil

417 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2023-yil

487 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2022-yil

10056 dona

2023-yil

8385 dona

Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko‘rsatayotgan

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 116 ta loyiha bo'yicha 486,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 5,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

### 2022-yil yanvar-mart

Loyihalar soni, birlikda 130 ta

Korxonalar soni, birlikda 119 ta

Ishlab chiqarish hajmi 357,1 mlrd.so'm

Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda 436 ta

### 2023-yil yanvar-mart

Loyihalar soni, birlikda 116 ta

Korxonalar soni, birlikda 101 ta

Ishlab chiqarish hajmi 486,3 mlrd.so'm

Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda 276 ta

*Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 276 ta yangi ish o'rinlari yaratildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni kamayganligi kuzatildi.*